

TANQIDNING INSON IJTIMOYLASHUVIGA TA'SIRI

Mirzamuradova Hilola Bobirjon qizi
Namangan Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxslarning tanqid qilinishi, tanqidning turlari, uning kishi hayotidagi ijobiy va salbiy xususiyatlari, tanqidning ta'sirini fan kesimidagi izohlari, ijtimoiylashayotgan shaxs temperamentining tanqidni qabul qilinishiga ta'siri, bugungi kun yoshlarining tanqidiy fikrga ega bo'lishining ahamiyatlilik tomonlari haqida atroflicha fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Tanqid, tanqidning turlari, o'z-o'zini tanqid qilish, tanqidiy fikrning harakati, shaxs temperamentini, ijobiy va salbiy oqibatlar, yoshlarning tanqidiy mulohazalari.*

Har bitta inson hayoti davomida duch keladigan voqea-hodisalar haqida ma'lum bir tartibni tuzib chiqadigan bo'lsak, ular qatorida ana shu insonni tanqid qilinish jarayonlari ham muhim o'rinni egallab turadi. Ana endi ozroq mulohaza yuritsak, bizda, tanqid, tanqid qilishning turlari, uning fan kesimidagi xususiyati qanday, bugungi kun yoshlarining tanqidiy fikrlashi, ularning ijtimoiylashuviga qay darajada ta'siri bor, degan savollar paydo bo'ladi. Tanqid so'zining o'zi quyidagicha lug'aviy ma'nolarga ega:

TANQID (1) - biror narsaga baho berish maqsadida uni tahlil qilish, muhokama qilish.

TANQID(2) - muayyan narsa haqida atroflicha salbiy fikr bildirish.

TANQID(3) - kamchiliklarni atroflicha asoslash va hal etish maqsadida bildiriladi fikr-mulohazalar yig'indisi.

Bilamizki, inson zoti bor ekan doim boshqalarning ijobiy sifatlarini emas, salbiy sifatlarini ko'radi. U aytgan mingta yaxshi so'zini-yu, mingta yaxshiligini emas, bitta yomon so'zini-yu, bitta yomonligini xotirasida saqlab qoladi. Xuddi shu miyyada saqlanib qoladigan negativ fikrlar to'plana-to'plana bir kun kelib miyyadan zabonga chiqa boshlaydi. Aynan biz shu jarayonni bir shaxsni boshqa shaxs tomonidan tanqid qilinishi deb ataymiz. Tanqidning ham o'ziga hos turlari mavjud bo'lib, ulardan kishiga ijobiy tomonlari ko'p bo'lgan turi bu o'z-o'zini tanqid qilishdir:

O'Z-O'ZINI TANQID QILISH (1) - bu insonning o'zidan xato va kamchiliklarni aniqlashga doir sa'y-harakati, o'z faoliyatidagi, fikrlashi va xatti-harakatlaridan salbiy tomonlarini tahlil qilish va baholashdir.

O'Z- O'ZINI TANQID QILISH(2) - shaxsning o'ziga bo'lgan refleksli munosabati, o'ziga nisbatan talabchanligi, o'z xatolarini mustaqil ravishda izlash qobiliyati va ularga nisbatan murosasiz munosabati, ularni bartaraf etish uchun barcha choralarni ko'rishga urinishdir.

Ana endi o'z-o'zini tanqid qilishni fanlar kesimida ko'rib chiqamiz:

Psixologiyada o'z-o'zini tanqid qila olishning mavjudligi shaxsning ruhiy salomatligining sharti hisoblanadi, o'z-o'zini tanqid qilish darajasining pasayishi, o'z-o'zini

hurmat qilishning yetarli darajada yuqori bo'lishiga olib keladi. Biroq haddan tashqari o'z-o'zini tanqid qilish inson salomatligini yomonligi belgisi sifatida baholanishi mumkin.

Britaniyalik psixotahlilchi Adam Flipsning fikriga ko'ra haddan tashqari o'z-o'zini tanqid qilish ikkilanishdan kelib chiqadi.

Aaron Bekning kognitiv psixoterepiyasi kabi ba'zi yondashuvlar o'z-o'zini tanqid qilish va o'zini ayblash darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun bu psixoterepiyada bezovtalikdan a'ziyat chekadigan va " Men tashvish inqirozi bilan qaytaman" , " Men buni yengishga qodir emasman" deb hisoblaydigan bemorlarning haddan tashqari o'zini tanqid qilib yuborishi va vaqt o'tishi bilan doim bir xil turdagi fikrlarga ko'nikib ular tobora mustahkamlanib borishi, natijada ularni yo'q qilish qiyinlashib borishi, ularning yo'q bo'lmasligi esa shaxsni mustaqillikdan cheklab qo'yishi haqida keltirib o'tiladi.

O'ziga nisbatan tanqidiy mulohazalar asosini insonning qadriyatlari, tamoyillari va xatto maqsadlaridan kelib chiqadigan ichki e'tiqodlari tashkil qiladi. Inson o'ziga yuqoridagilar vositasida qarasa , o'zini tanqid qilish haqida so'z borayotgan bo'ladi. Chunki u o'zini boshqa birovning e'tiqod tizimi bilan solishtiradi, u o'ziga qaram bo'lib, o'z shaxsiyatini yetarli darajada baholamaydi.

Shaxsiy kuzatishlarim natijalaridan shuni ta'kidlab o'ta olamanki, hammamizga ma'lum va mashhur bo'lgan muvaffaqiyatli insonlarning sakson foizi o'zi haqida bildirilgan tanqidlarni to'g'ri qabul qilgani va o'z ustida ishlaganlari uchun mukammal va muvaffaqiyatli bo'lib borganlar. Ularning hayot tajribalaridan " Tanqid taraqqiyotning targ'ibotchisi " degan g'oya ustuvor yo'nalishga ega. Ammo bir novdani ikkita uchi bo'lganidek, yuqoridagi shaxslarga mutlaqo o'xshamaydigan insonlar ham bor. Ular qandaydir tanqidga uchrashsa, darrov tushkunlikka tushib qolishadi va boshlagan ishlaridan voz kechish holatlarini o'zlarida namoyon qilishadi. Bu kabi holatlar asosan flegmatik va milanxorik tempramentdagi shaxslarda ko'p uchraydi. Bunga sabab Xolerik va Sangvinik tempramentdagi shaxslarda o'zgalar fikridan ta'sirlanish hodisalari juda kam bo'ladi. Ular o'zgalarning qandaydir fikridan ko'ra shaxsiy manfaatlari ustun qo'yishadi, yoki aynan shu tanqid qilgan insonga buni noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun ham maqsadlarini amalga oshirishga bor kuchini, energiyasini sarflaydi. Bu holat to'g'risida amerikalik sotsiolog va psixolog Erix Fromm: " Tanqid kimningdir tebranishiga sabab bo'lsa, kimningdir qalbdagi olovini so'ndirib qo'yadi", - deb izoh kiritgan.

Tanqidiy vaziyat va holatlarni tahlil qilishda davom etadigan bo'lsak, tanqid shaxslar o'rtasida doimo adovatni keltirib chiqaradi. Bu esa ular o'rtasida raqobatni yuzaga kelishiga , inson o'zi bilmagan holda raqobatlashishi orqali rivojlanib, mukammalashib, ijtimoiylashib qolishiga sabab bo'ladi. Aynan shuning uchun ham bugungi kun yoshlarini tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ularni nafaqat bir -biriga yoki o'ziga nisbatan tanqidiy qarashda bo'lishinigina emas, yurtimiz hayotida bo'layotgan har bir hodisaga, fan kesimida paydo bo'layotgan yangi informatsiyaga , avvaldan mavjud bo'lgan g'oya-nazariyalarga tanqidiy

fikr bildiradi olishi, ana shu predmerlarni kamchiliklardan holi bo'lishiga, yangi xususiyatini ochilishiga, yoshlarni o'zini esa tafakkur tendentsiyasi sayqallashib borishiga olib keladi.

Bundan shuni xulosa qilsak bo'ladiki, tanqid inson ijtimoiashuviga ta'sir etuvchi muhim jarayon va u sog'lom ruhda ifoda etiladigan bo'lsa, faqatgina ijobiy natijalarni qo'lga kiritilishiga tamal toshi bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erix Fromm " Ozodlikdan qochish"
2. Aaron Bek " Kognitiv psixoterepiya"
3. Entoni Giddens " Sotsiologoya "
- 4 . Ortiqov Eldor Mardonovich " Yoshlarning tanqidiy fikrlashini bugungi kundagi ahamiyati"
5. "Sotsiologiya izohli lug'ati"